



## USTOZ ABDUQODIR HAYITMETOV VA NAVOIY TANQIDCHILIGI

**Muallif:** Axmedova Shoira Nematovna<sup>1</sup>

**Affiliyatsiya:** Osiyo xalqaro universiteti professori, filologiya fanlari doktori<sup>1</sup>

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.20196311>

### ANNOTATSIYA

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy adabiy-tanqidiy qarashlarini o'rganish shoir yashagan davr adabiy jarayoni, davr adabiyoti va madaniyatini o'rganishda muhim o'rin egallab kelmoqda. Professor A.Hayitmetovning Navoiyning adabiy-tanqidiy qarashlarini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlari ana shu jihatdan dolzarbligini yo'qotmay kelmoqda. Maqolada olimning Navoiy tanqidchiligini yuksak ilmiy-nazariy nuqtai nazardan tadqiq etgan qarashlari haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Adabiy tanqid, tanqidiy qarash, mumtoz adabiyotshunoslik, obyektivlik, mazmun va shakl birligi, suhbat.

XX asrning 50-yillari oxiri 60-yillariga kelib, o'zbek adabiyotshunosligi va tanqidchiligi mafkura siyosatidan chetga chiqib ketolmagan bo'lsa-da, davrda o'z tarixiy taraqqiyoti yo'lining yangi bosqichiga o'tdi. Uning tadqiqot obyekti kengaydi, hayotiy masalalarga yaqinlashuvi chuqurlashdi. O'zbek adabiyoti tarixini tadqiq etishga e'tibor kuchaydi, ko'tarib chiqilayotgan muammolar rang-baranglashdi. Adabiyotshunoslik Alisher Navoiy va undan keyingi davrdagi san'atkorlar hayoti va ijodini monografik yo'sinda tadqiq qilishda jiddiy yutuqlarga erishdi. Adabiy tanqidagi estetik talablarning oshib borishi adabiyotshunoslarning ham mas'uliyatini kuchaytirdi. Yirik navoiyshunos olim Abduqodir Hayitmetovning "Alisher Navoiyning adabiy-tanqidiy qarashlari" (1959) monografiyasi o'zbek adabiyotshunosligi va tanqidi tarixini o'rganish borasidagi birinchi yirik va dadil qadam sifatida alohida ahamiyatga ega bo'ldi. Atoqli folklorshunos, akademik T. Mirzayev: "Zukko olim Abduqodir Hayitmetov katta hayot yo'lini bosib o'tdi. U bu yo'lda nimagaki erishgan bo'lsa, bularning barchasi, o'zbek adabiyotshunosligi taraqqiyotining muayyan jihatlarini o'zida to'la aks ettirib, fanning bu sohasi rivojiga arzirli hissa bo'lib qo'shilganligini" ta'kidlagani bejiz emas [4,45]. Darhaqiqat, navoiyshunos olimning bu tadqiqoti hozirgacha nafaqat Alisher Navoiy yashagan davr tanqidchiligi rivoji, balki o'zbek adabiyotshunosligi va tanqidchiligi taraqqiyotini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Buni olimning o'zi ham ta'kidlaydi:

"Navoiyning ijodi va adabiy-tanqidiy merosini jiddiy o'rganish tanqidchilarimizga klassik merosimizni chuqur o'zlashtirishga katta yordam beradi. Chunki Navoiyning ijodi va tanqidiy merosi o'zbek adabiyoti va o'zbek adabiyotshunosligining eng katta yutug'idir"[7, 38].

Abduqodir domlaning shaxsi, ilmiy faoliyati, bosib o'tilgan umr yo'liga nazar tashlayman, navoiyona harakat, xokisorona turmush tarzini ko'rib, dil-dildan

quvonaman. Olim uchun Navoiyni o'rganish, Navoiy haqida o'ylash, Navoiy xususida yozish, navoiyshunoslikda kuzatiladigan nuqsonlarni o'z dardi bilish- qismat. Uning ilmiy-ijodiy taqdirini o'shalardan tashqarida tasavvur qilib bo'lmaydi",- yozadilar ustoz R.Vohidov [3, 43].

Olim Navoiy tanqidchiligining vujudga kelishida o'zbek, tojik, ozarbayjon, fors, arab adabiyotlarining yutuqlari asos bo'lganligini, bularsiz Navoiy tanqidchiligining yuzaga chiqishi qiyin bo'lganligini to'g'ri qayd etadi. Rus adibi A.Tolstoyning yozuvchi bir vaqtning o'zida ham mutafakkir, ham san'atkor, ham tanqidchi bo'lib ishlashi kerakligi haqidagi fikrlariga tayanib, ayni shu qirralar buyuk tanqidchida mujassamligidan kelib chiqib, Navoiy tanqidchiligini obyektiv baholash yo'lidan boradi. Haqiqatda ham Navoiy asarlarida uni ham mutafakkir, ulug' shoir, adabiyotshunos, olim, davlat arbobi, ilm-fan homiysi, so'z san'atiga yuqori baho bera oladigan sinchi tanqidchini ko'ramiz. Shu jihatdan qaraganda ustoz A.Hayitmetovning bu tadqiqoti, garchand yozilgan davri, mafkurasi ta'siri sezilsa-da, Navoiyning adabiy-tanqidiy qarashlarini o'rganishda dolzarbligini yo'qotmagani yaqqol namoyon bo'ladi.

A.Hayitmetov Navoiy tanqidchiligining o'zidan oldingi tanqidchilardan ajratib turadigan birinchi fazilatini shunday ko'rsatadi: "...u yoki bu masalalarga o'z davrining ilg'or dunyoqarashi bilan, xalqparvarlik, insonparvarlik pozitsiyasidan turib yondashdi. U o'zigacha mavjud adabiyotshunoslik erishgan yutuqlarga ma'lum darajada yakun yasay bildi. U ko'p masalalarni faqat nazariy jihatdan hal qilish bilan cheklanmay, buyuk san'atkor sifatida o'z nazariy qarashlarini amalga oshira bildi ham"[7,36].

Ustoz A.Hayitmetov tadqiqotining eng muhim fazilatlaridan bir shundaki, u masalaning mohiyatiga chuqur kirib borish tamoyiliga amal qiladi. Masalan, Navoiyning tanqidchilik faoliyatini tadqiq etishdan oldin uning adabiy-tanqidiy qarashlari qanday tarixiy sharoitda vujudga kelganligini atroflicha o'rganadi.

"Navoiy davrida adabiy tanqid hozirgi kundagi kabi alohida fan va uning ma'lum bir tarmog'i bo'lmagan. Lekin e'tirof qozongan asarlarning badiiy estetik mezonlari bo'lmasligi mumkin emas edi" [6,41]. Bu mulohazalar unchalik to'g'ri emasligini mumtoz adabiyotshunoslikda "ilmi segona" ning har birida naqd ilmi bo'lgan va hatto Shamsiddin Qays Roziyning "Al-mo'jam" asarida ilmi naqdga alohida fasl ajratilganligi uning alohida tarmoq sifatida mavjudligini tasdiqlaydi [2,5]. Alisher Navoiy ham ana shu omillar ta'sirida yetuk tanqidchi bo'lib yetishganini yetuk navoiyshunos A.Hayitmetov tadqiqoti ham tasdiqlaydi: "O'zbek adabiyotida adabiy tanqidchilik Navoiygacha ham bo'lgan. Navoiy o'zigacha bo'lgan adabiy tanqidchilikni eng yaxshi tomonlarini rivojlantirdi".

Olim Navoiy tanqidchiligining eng muhim jihatini to'g'ri belgilagan: "Navoiyning adabiy-tanqidiy merosini uning poetik ijodidan ajratib qarash mumkin emas. Navoiy professional tanqidchi emas, san'atkor tanqidchidir. U adabiy tanqidchilikka o'z adabiy-badiiy ijodidan, o'z ijodiy tajribasidan kelib chiqib yondashadi. Jahon adabiyotining ulug' geniylari A.S.Pushkin, L.N.Tolstoy, V.Gyote, O.Balzakar ham xuddi shunday – ulug' san'atkor tanqidchilardan edilar" [7, 6].

A.Hayitmetov tadqiqotining muhim fazilatlaridan bir shuki, u navoiyshunoslar orasida birinchilardan bo'lib, mumtoz adabiyotshunoslik, adabiy tanqidchilik janrlari va shakllarini bir tizim sifatida tasnif qiladi. (To'g'ri ungacha professor A.Sa'diyning tadqiqotlarida bu muammo bir muncha o'rganilganligini olimning o'zi ham qayd qilib o'tadi). Masalan, olim o'tmishda adabiyotshunoslik, xususan adabiy tanqidga oid fikrlarning olti xil shakli xususida fikr yuritadi va ularning birinchi shakli sifatida

“adabiy majlislar, adabiy munozara va suhbatlar”ni ko’rsatadi. “Adabiy majlislar, adabiy munozara va suhbatlar o’rta asrlarda adabiyotshunoslar, shoirlar va adabiyotga yaqindan qiziquvchi barcha kishilar uchun adabiy ijod ustida fikr almashish uchun eng qulay vosita edi. Fikr almashish uchun matbuot bo’lmagan zamonlarda adabiyot taraqqiyotida bunday yig’ilishlarning ahamiyati juda katta bo’ldi...

Adabiy tanqidchilikning bu formasi, shubhasiz, xalq og’zaki ijodchilari to’plangan joylarda ham mavjud bo’lgan va ularning bir-birlarining ijodiy yuksalishlariga yordam bergan” [7,20].

Tanqidiy-biografik yo’nalishdagi janrlar genezisiga nazar solinsa, o’tmishda adabiyotshunoslik va adabiy tanqidiy fikrlar “adabiy xotira va memuarlar yozish formasida” uchrashini ham A.Hayitmetov ko’rsatib bergan edi: “Ayrim adabiyot vakillarining hayoti va ijodi haqidagi xotiralarni to’plash, bu haqda memuarlar yaratish – bu ham adabiyotshunoslikning bir formasi edi. Bunda maxsus bir yoki bir nechtagina kishi haqida ma’lumot berilar va shu kishi haqida gapirishga imkoniyat ham tazkiradagiga qaraganda keng bo’lar edi...[7, 26].

Haqiqatan ham Alisher Navoiyning «Xamsatul-mutahhayirin», «Majolis un-nafois», Ali Safiy ibn Husayn Voiz Koshifiyning «Latoif ut tavoif», Xondamirning «Makorimul-axloq», Vosifiyning «Badoye ul-vaqoye» kabi asarlarida mazkur masalalarga doir qimmatli dalillar keltiriladi. Aytaylik, Salmon Sovajiy va Ubayd Zakoniy o’rtasidagi mutoyiba, o’zbek shoiri mavlono Lutfiy va Abdurahmon Jomiy orasidagi musohabalar, Mavlono Lutfiy va yosh Alisher Navoiy o’rtasidagi suhbatlari ana shunday dalillar silsilasini tashkil etadi. Bir suhbatda og’zaki tarzda bayon qilingan mulohaza og’izdan-og’izga o’tib, Xondamirgacha yetib borgan. U muhim ahamiyatga ega bu musohabani o’z asariga kiritib, bizgacha yetib kelishida katta xizmat qilgan. Uning qimmatli shundaki, shu suhbat vositasida Alisher Navoiyning yoshligidan zamonasining mashhur shoirlari e’tiborini jalb etib, tahsinga sazovor bo’lgani oydinlashadi. Demak, yozma adabiyot vakillarining u yoki bu asar, she’r va bayt to’g’risida mushoira va anjumanlarda, suhbat va uchrashuvlarda og’zaki bayon etgan mulohazalari ancha to’g’ri va foydali ekani ma’lum bo’ladi. Afsuski, bunday suhbatlar hamma vaqt ham qog’ozga tushirilib, tarix va avlodlar uchun saqlangan emas. Shuning uchun bu masalaga daxldor har bir dalil qimmatli va mo’tabardir. Navoiyning o’zi ham “ adabiy majlis, munozara, bahs, suhbat va boshqalarni sevgan, chunki u adabiy munozara va bahslarning ijodiy ishga ahamiyatini chuqur tushungan” [7,52].

“Abduqodir Hayitmetov ulug’ mutafakkirning qay bir ilmiy asari xususida to’xtalmasin, albatta, undagi adabiy-tanqidiy qarashlarni uning badiiy asarlari bilan qiyoslab mushohada yuritadi va Navoiyning so’zda va amalda, nazariya va ijod jarayonida yaxlit bir butunlikka erishgan san’atkor ekanligini ko’rsatib beradi [6, 107]. Shu bilan birga olim bugungi ilm-fan uchun dolzarb bo’lgan plagiat masalasiga ham Navoiy katta e’tibor bilan qarab, unga qarshi kurash olib borganligini, masalan, Navoiy Ayoziy degan shoirning originallikka intilmagani, Mavlono Nargisiyini ko’chirmachi bo’lganligi uchun tanqid qilganini aniq misollar asosida ko’rsatib beradi. “Lekin o’z davrining haqiqiy yozuvchisi, o’z davrining ulug’ hakami Navoiy adabiyot hodisalariga har doim vijdonli munosabatda bo’lib, bu sohada ham doim adolat, haqiqat yo’lini tutganligini ta’kidlaydiki, bugungi mustaqillik davri tanqidchiligi ayni shu jihatlarga urg’u berishi kerakligini oradan qariyb oltmish yil o’tgan bo’lsa-da, ustoz A.Hayitmetov tadqiqoti yaqqol ko’rsatib turibdi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Axmedova Sh. Yozuvchi tanqidi. Toshkent, 2023.
2. Boltaboyev H., Maxmudov M. Adabiy-estetik tafakkur tarixi. T.: “Mumtoz so‘z”, 2012. 2-jild.
3. Vohidov R. Navoiy qalbi-la sirlashgan inson. Toshkent. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti.1999.
4. Mirzayev T. Zukko olim // Muloqot, 1996. № 6. –B.45.
5. Shamsi Qaysi Roziy. Al-mo‘jam. Dushanbe: “Adib”, 1991.
6. Quvonov Z. “Abduqodir Hayitmetovning adabiyotshunoslik faoliyati” ilol. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. Samarqand, 2020. 107 b.
7. Hayitmetov A. Alisher Navoiyning adabiy-tanqidiy qarashlari. – T.: “Fan”, 1959. – B. 6-7.